

## TIBBIY DEONTOLOGIYANING JAMIYATDAGI O'RNI

### **Ibragimova Muazzam Xoldorovna**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Psixiatriya,  
narkologiya va tibbiy psixologiya kafedrası stajer assistenti

E-mail: [muazzamibragimova630@gmail.com](mailto:muazzamibragimova630@gmail.com)

### **Muxtorov Anvar Alisher o'g'li**

SamDTU Stomatologiya fakulteti IV kurs 406-guruh talabasi

e-mail: [anvarmuxtorov35@gmail.com](mailto:anvarmuxtorov35@gmail.com)

### **Ziyodullayeva Munisa Sobirjonovna**

SamDTU Stomatologiya fakulteti IV kurs 406-guruh talabasi

E-mail: [munisaziyodullayeva9501@gmail.com](mailto:munisaziyodullayeva9501@gmail.com)

**Annotatsiya:** shbu maqola o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tibbiyot hodimlarining salohiyatini oshirish, aholini ijtimoiy-turmush darajasini tibbiyot sohasiga bo'lgan e'-tiborini yanada oshirishga hissa qo'shadi. Ayrim muommolarni bartaraf etishga qara-tilgan, tibbiyot hodimlarning aholiga malakali xizmat ko'rsatishiga tavsfiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Deontologiya, burch, tibbiyot, be'mor, davolash, xujjat, tibbiy etika, axloq.

Tibbiy etika – tibbiyot xodimlarining axloqiy me'yorlari to'plami. "Etika" so'zi yunoncha "etos" - odat deyiladi. Jamiyatda odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini normalar, qoidalar va urf-odatlar boshqaradi. Ularga asosan tibbiyot xodimlarining etika va axloqiy tamoyillari belgilanadi: burch, sha'n, qadr-qimmat, vijdon, baxt - saodat. Tibbiy etika printsiplari shifokorlarning kundalik faoliyatida

kuzatilishi kerak. Tibbiyot xodimining burchi – bemorga yuqori professional darajada yordam berish, hech qachon va hech qanday bahona sababli bemorning jismoniy va ruhiy salomatligiga qarshi qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanmasligi kerak. Tibbiyot etikasiga shunday muammolarni hal qilish kiradiki, unga asosan nafaqat yashayotgan insonlar hayoti va salomatligi, balki bo‘lg‘usi avlod hayoti va salomatligini yaxshilash kiradi. Bular: tinchlik uchun kurash, ommaviy qirg‘invositalarini yaratish va to‘plashga qarshi kurash, atrof muhitni muhofaza qilish va boshqalar. Hamshira burchi bu – avvalo shifokor ko‘rsatmasini aniq bajarishdir (holat, parhez, inyeksiya, tana haroratini o‘lchash, dori tarqatish, va h.o.). Agarda hamshira vrach ko‘rsatmalarini rasmiylik uchun emas, balki chin ko‘ngildan bajarganda bemorlar ning tez tuzalishi, dardini engillashishi yanada samarali bo‘ladi. Bularning barchasi intizomni, professional ko‘nikmalar va bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bunday holatda hamshiraning shaxsiyati muhim ahamiyatga ega. Agarda tibbiyot xodimi malakali bo‘lsa, o‘z vazifalarini professional bajarsayu, bemorlar bilan aloqa o‘rnata olmasa, uning xatti-harakatlari davolashda kutilgan natijani bermaydi. Uning e‘tiborli mehribon bo‘lishi, samimiy muomalasi, doimo tabassum ulashishi burchi bo‘lib hisoblanadi va bolalarning yangi muhitga moslashishi uchun yordam bo‘ladi.

Sha‘n va yahshi hislatlar burch tushunchasining ajralmas qismi hisoblanadi, ya‘ni o‘z - o‘zini anglash, yahshi hislatlarini ifoda etish, obro‘cini saqlash, doimiy ravishda kasbiy mahoratini oshirishga va ish sifatini yaxshilashga intilishdir. Tibbiy deontologiya (yunoncha “ deontos ” – kerak bo‘lgan , majbur) - tibbiyot xodimlarining o‘z professional majburiyatlarini bajarishdagi ahloqiy normalari va tamoyillari to‘plamidir. U tibbiy etika bo‘limiga kiritilgandir, chunki u ko‘plab masalalarni qamrab oladi. Deontologiya tibbiyot xodimining ahloqiy harakatlarini o‘rganadi, davolash samaradorligini maksimal oshirishga qaratilgan harakatlarni o‘rganadi, tibbiy faoliyat davomida salbiy omillar va tibbiy xizmatning to‘laqonli bo‘lmasligini oldini oladi. Xalqaro vrachlik deontologiya kodeksiga ko‘ra shifokorga ikkita strategik talablar qo‘yiladi: 1) bilim; 2) insonlarga ijobiy munosabat. Tibbiy

xodimlarning o'zaro munosabatlari. Kasalxonada sharoitida tibbiyot xodimlari o'rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Tibbiy xodimlarning ahloqiy qoidalarini buzish, ularning kasbiy majburiyatlarini bajarmasligi davolash jarayonining samaradorligiga ta'sir qiladi. Tibbiy xodimlarning ota-onalari, bemor bolani qarindoshlari bilan o'zaro munosabatlari Ota-onalar, ayniqsa onalar, aksariyat hollarda kasallikni qiyin qabul qilishadi. Og'ir kasallangan bemorni onasi psixologik jihatdan travma oladi va noadekvat munosabat, ya'ni reaksiya bildirishi mumkin. Shu sababli tibbiy xodimlar istisno qilmasdan onaga alohida e'tibor berishlari zarur. Kasalxonada og'ir kasal bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qiluvchi onalarga alohida e'tibor berilishi kerak. Ayolni so'z bilan ishontirish, nafaqat dam olish, balki ovqatlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish, bolaning to'g'ri davolanishiga ishonch hosil qilishiga yordam berish muhimdir. Ona shifokor tomonidan tayinlangan manipulyatsiya, muolajalarni va h.o.larning ahamiyati va zarurligini tushunishi kerak. Har qanday yoshdagi bolalarga nisbatan munosabat teng va yaxshi bo'lishi kerak. Bu qoida kasalxonada qolishning birinchi kunlaridan kuzatilishi kerak. Bolalar palataga yotishni yomon qabul qilishadi; ota-onalar ketgandan so'ng, tibbiy xodimlarning bolani tinchlantirishi qiyin bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar tibbiy xodimlarga yaxshi, ishonch bilan munosabatda bo'lib, ularning og'ir mehnatlari uchun minnatdor bo'lishadi. Shu bilan birga, qo'pollik va shafqatsiz xatti - harakatlar bilan shifoxona xodimlarining e'tiborini bolalarga qaratishga harakat qiluvchi "qiyin" ota-onalar ham mavjud. Bunday ota - onalarga tibbiy xodimlar ichki va tashqi xotirjamlik bilan javob berishi yomon xulqli odamlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bolaning kasalligini bilishda davolashning to'g'riligini va jarayonni aniqlab olishda tibbiyot hamshirasidan bilish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday hollarda qarindoshlari bilan suhbatlashish hamshiraning vakolatiga kirmaydi. Uning kasallikning belgilari va natijasi haqida gapirishga haqqi yo'q. Hamshiralar xushmuomalalik bilan kechirim so'rashi, qarindoshlarni shifokor yoki bo'lim boshlig'iga murojaat qilishlari uchun yuborishlari kerak. Bolalar bo'limlarida ota-onalar bilan tibbiy xodimlarning aloqalari yaqin va tez-tez sodir bo'ladi: Bemorning oilasi bilan hamshira orasidagi to'g'ri aloqa

qilish taktikasi ruhiy muvozanatni yaxshilaydi: tibbiy xodim - kasal bola -uning otanasi. Tibbiy deontologiyaning axloqiy tamoyillari va deontologiya me'yorlariga rioya qilish majburiy bo'lib, tibbiy xodim ish joyiga va lavozimiga bog'liq emas. Tibbiyot xodimlarining deontologiya me'yorlariga jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabatda bo'lish, kollegiallik tuyg'usi, intizomni saqlash halol va vijdonan munosabatda ishlash kiradi. O'zaro ishonchli bo'lish uchun ehtiyotkorlik va shijoat ko'rsatish kerak. Tibbiy xodimi faoliyatida bemorlar va hamkasblari orasida o'zini tuta bilishi, sharoitga qarab suhbatlashishi va h.o. muhim. Xar bir hodim toza ko'rinishga ega bo'lishi, kiyimi, poyabzali tozaligini nazorat qilishi, taqinchoqlari kam bo'lishi va ortiqcha bo'yanmasligi lozim. Tibbiy muassa- sada chekish taqiqlanadi. Ish kiyim (xalat, bosh kiyim va galstuk, almashib kiyiladigan poyabzal) toza va namunali bo'lishi kerak. Axloqiy xatti-harakatlarga to'g'ri salomla -shish (ism-sha'rifi bilan) ham kiradi.

“Barcha san'atlar ichida eng buyugi tibbiyotdir” degan edi Gippokrat. Vrachlik kasbini egallash uchun faqat shu soxani bilimdoni bo'lish yetarli emas, albatta. Vrach avvalambor haqiqiy inson bo'lishi kerak. Vrachni jang maydonidagi askarga o'xshatish mumkin. U dushman bilan olishayotib faqat Vatan haqida o'ylaydi. Vrach ham bemorning hayotini saqlab qolish, uni sog'aytirib yuborish uchun kurashadi. Bunda u o'z manfaatini emas, faqat bemorning tezroq sog'ayib ketishini o'ylaydi. Shuning uchun qadimda vrachni yonib turgan shamga o'xshatishgan, u o'zini yonib erib tugaguncha atrofga nur sohib, yorug'lik taratib turadi.

Tibbiyot deantologiyasi vrach burchi, qiyofasi, obro'si, nomusi va vijdoni haqidagi haqiqiy fandır. Gippokrat qasamyodida tibbiyot deantologiyasi va etikasiga oid ko'p iboralar keltirilgan. U “Axloqsiz vrachning bemorni davolashga xaqqi yo'q”, deb xitob qilgan. Gippokrat qasamyodi tibbiyot etikasining rivojlashiga kata ta'sir ko'rsat-di.



### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:(REFERENCES)**

- 1.Abu Ali Ibn Sino.Tib qonunlari.X jildi.-T.:2000
- 2.Adizova T.M.Psixokorreksiya.-T.:2005
- 3.Vasila Karimova.Salomatlikpsixologiyasi.-T.:2005
- 4.Ibodullayev Z.R.Tibbiyot psixologiyasi.Darslik.-T.:2008
- 5.Karimova V.M.,Akramova F.Psixologiya(Ma’ruzalar to‘plami).-T.:2000
- 6.Olimov X.O.,Olimov U.X.Psixiyaterapiya klinikasining muqaddimasi.- T.:1997

